Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320304

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING XALQARO TAJRIBALARI VA ULARNI MILLIY AMALIYOTGA TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI

TDIU "Byudjet hisobi va g'aznachilik" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
MIRZAYEV BOBIR SHAMSIDDINOVICH

Zamonaviy dunyoda kambag'allik global muammolardan biri bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Kambag'allikni qisqartirish masalasi xalqaro tashkilotlar, davlatlar va fuqarolik jamiyatlari diqqat markazida bo'lib, bu borada turli mamlakatlarda samarali strategiyalar va dasturlar ishlab chiqilgan. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari kambag'allikni kamaytirishning ilg'or mexanizmlarini yaratishda muhim tajriba to'plagan. Bugungi kunga kelib, kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha turli model va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ayrim davlatlar iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga erishish orqali kambag'allikni kamaytirsa, boshqalar ijtimoiy himoya dasturlarini kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish yo'li bilan aholi turmush darajasini yaxshilashga harakat qilmoqda.

Shuningdek, kambag'allikka qarshi kurashishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqotda kambag'allikni qisqartirish borasida dunyoning ilg'or mamlakatlarida qo'llanilayotgan samarali mexanizmlar tahlil qilinadi. Jumladan, Skandinaviya davlatlari, AQSh, Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning tajribasi ko'rib chiqilib, ularning ijobiy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yondashuvlarning mamlakatimiz sharoitida qo'llash imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot kambag'allikni kamaytirish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish orqali iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirishga hissa qo'shish hamda davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xorij tajribalar kambag'allikni qisqartirishda katta ahamiyatga ega, chunki ular boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli strategiyalar va siyosatlarning samaradorligini ko'rsatadi. Xorij tajribalari mamlakatlarga o'z sharoitlariga mos yondoshuvlarni joriy qilishda yordam beradi. Xorij tajribalarining ahamiyati orqali samarali siyosatlarni o'rganish va tatbiq etish, innovatsion yechimlar va texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish shular jumlasidandir.

Xorij mamlakatlarida amalga oshirilgan kambag'allikni qisqartirish siyosatlari va dasturlari, o'z muvaffaqiyatlari va kamchiliklari bilan tanishib, ularning eng yaxshi tajribalarini o'rganish va o'z mamlakatida tatbiq etish imkonini beradi. Masalan, Braziliyadagi Bolsa Família yoki Germaniyadagi ixtisoslashgan ijtimoiy yordam tizimi kabi dasturlar o'zaro aloqalar va

Published: 05.06.2026

Cite this article: Mirzayev Bobir Shamsiddinovich (2026). Kambag'allikni qisqartirishning xalqaro tajribalari va ularni milliy amaliyotga tatbiq etish istiqbollari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320304

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlar uchun model bo‘lishi mumkin. Xorij tajribalari yangi texnologiyalar va innovatsion yondoshuvlarni o‘rganishga imkon beradi. Afrikadagi mobil to‘lov tizimlari, Janubiy Koreyaning texnologik rivojlanish modeli yoki Singapurda startaplar uchun yaratilgan qulay sharoitlar kabi innovatsion yechimlar kambag‘allikni qisqartirishda samarali natijalar berdi. Bu texnologiyalarni o‘z mamlakatiga moslashtirish orqali kambag‘allikni qisqartirish mumkin.

Skandinaviya davlatlari – Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiya – kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega bo‘lgan mamlakatlardir. Ushbu davlatlar yuqori darajadagi ijtimoiy himoya, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish orqali kambag‘allik darajasini sezilarli darajada pasaytirishga erishgan (1-jadval) [4].

1-jadval

Skandinaviya davlatlarining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha asosiy yondashuvlari

Davlat	Kambag‘allikka qarshi yondashuvlar	Erishilgan natijalar
Shvetsiya	Bepul ta’lim va tibbiy xizmat, yuqori soliq stavkalari orqali ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish	Kambag‘allik darajasi juda past, yashash darajasi yuqori
Norvegiya	Neft fondi orqali iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy himoya tizimi keng qamrovli	Ijtimoiy tenglik darajasi yuqori, kambag‘allik minimal
Daniya	Yuqori darajadagi soliq siyosati, ish bilan ta’minlash dasturlari	Ishsizlik va kambag‘allik darajasi juda past
Finlyandiya	Minimal ish haqi va ijtimoiy nafaqalar, sifatli ta’lim tizimi	Kambag‘allik va ijtimoiy tengsizlik minimal

Skandinaviya davlatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kuchli ijtimoiy himoya va ta’lim tizimiga sarmoya kiritish kambag‘allikni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Bu yondashuvlarni O‘zbekiston sharoitida moslashtirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Ushbu tajribani boshqa davlatlarda, jumladan, O‘zbekiston sharoitida moslashtirilgan holda qo‘llash orqali sezilarli natijalarga erishish mumkin. Quyidagi jadvalda Skandinaviya davlatlarining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha asosiy yondashuvlari va ularning O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatilgan (2-jadval) [4]:

Skandinaviya davlatlarida kambag‘allikka qarshi kurashishda yuqori soliqlar hisobidan ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va minimal ish haqi hamda sifatli ta’lim tizimi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda ushbu tajribalarni qo‘llash uchun ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish,

tabiiy resurslardan samarali foydalanish, soliqlash tizimini takomillashtirish hamda minimal ish haqi tizimini kengaytirish zarur.

2-jadval

Skandinaviya davlatlarining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha asosiy yondashuvlari va ularning O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari

Davlat	Kambag‘allikka qarshi yondashuvlar	O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari
Shvetsiya	Bepul ta’lim va tibbiy xizmat, yuqori soliq stavkalari orqali ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish	Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, ijtimoiy dasturlarni kengaytirish
Norvegiya	Neft fondi orqali iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy himoya tizimi keng qamrovli	Tabiiy resurslarni samarali boshqarish va daromadlarni ijtimoiy dasturlarga yo‘naltirish
Daniya	Yuqori darajadagi soliq siyosati, ish bilan ta’minlash dasturlari	Soliq tizimini takomillashtirish va mehnat bozorini rivojlantirish
Finlyandiya	Minimal ish haqi va ijtimoiy nafaqalar, sifatli ta’lim tizimi	Minimal ish haqi tizimini kengaytirish va kasbiy ta’limni rivojlantirish

Bu orqali ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash mumkin. Xitoyning kambag‘allikni qisqartirishdagi tajribasi dunyo miqyosida eng yirik va muvaffaqiyatli hisoblanadi. Oxirgi o‘n yilliklarda Xitoy bir necha yuz million odamni qashshoqlikdan chiqarib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Barqaror rivojlanish maqsadlariga sezilarli hissa qo‘shgan (3-jadval) [4].

3-jadval

Xitoyning kambag‘allikka qarshi kurashish tajribasi va O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari

Yo‘nalish	Xitoy tajribasi	O‘zbekistonda qo‘llash afzalliklari
Sanoat va infratuzilma rivoji	Yangi sanoat zonalarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish orqali ish o‘rinlarini yaratish	Sanoat zonalarini kengaytirish, ish o‘rinlarini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish mumkin
Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish	Dehqonchilik va chorvachilikni ilg‘or texnologiyalar asosida rivojlantirish	Agrosanoat kompleksini rivojlantirish, mahsulot eksportini kengaytirish
Soliq va kredit siyosati	Kichik va o‘rta bizneslar uchun imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari	Biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni oshirish
Texnologik innovatsiyalar	Raqamli iqtisodiyot, IT sektori va elektron tijoratni rivojlantirish	IT sohasi va startaplarni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratish
Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik	Kasb-hunar o‘rgatish markazlari va amaliy ta’limga e’tibor	Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish orqali malakali kadrlarni tayyorlash
Ijtimoiy dasturlar	Kambag‘allikka qarshi davlat dasturlari va ijtimoiy himoyani kuchaytirish	Ijtimoiy yordam dasturlarini kengaytirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash

Shahar va qishloq o‘rtasidagi farqni kamaytirish	Urbanizatsiya orqali qishloq joylarini rivojlantirish va aholini shahar infratuzilmasiga yaqinlashtirish	Hududiy rivojlanish dasturlari orqali qishloq joylarini qo‘llab-quvvatlash

Xitoyning kambag‘allikka qarshi kurashish tajribasi O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Sanoatni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, texnologiyalarni keng joriy etish va ijtimoiy dasturlarni qo‘llash orqali mamlakatda kambag‘allik darajasini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu tajriba O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlariga moslashtirilib qo‘llansa, aholining hayot darajasini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Xitoy 1980-yillarda dunyo bo‘yicha eng kambag‘al mamlakatlardan biri edi. Bugungi kunga kelib, kambag‘allik darajasi sezilarli darajada pasaydi.

Xitoy iqtisodiyoti 40 yil davomida barqaror yuqori sur’atda o‘sdi, bu kambag‘allikni qisqartirishga yordam berdi. Xitoyning tajribasi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilmoqda. Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni qisqartirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilma sohalarini kompleks rivojlantirish talab etiladi. Xitoyning ushbu yo‘nalishdagi yondashuvlari O‘zbekiston uchun ham foydali bo‘lishi mumkin, xususan, infratuzilmani rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni qo‘llashda.

Xulosa qilib aytganda, hududiy kambag‘allik darajasiga iqlim o‘zgarishi, antropogen ta’sirlar, narxlarni ko‘tarilishi, inflyatsiya darajasi, tashqi qarzlar va budjet defitsiti ortib borayotgan bugungi davrda kambag‘al va qoloq aholi sonining ortib borishi mamlakatni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Shu sabab hukumat darajasida har bir fuqaroga ayniqsa, moddiy yordamga juda muhtojlarga, albatta, maksimal darajada ko‘mak berish ustuvor vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda, ularni ish bilan ta’minlash yoki tadbirkorlika o‘rgatish kabi tashabbuslar shular jumlasidandir. Biroq iqtisodiyot mutadil bo‘lmasa, ish haqi ham, aholi turmush darajasi ham pasayib boraveradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan Qashqadaryo viloyatida aniqlangan muammo va kamchiliklar hamda kam-bag‘allikka sabab bo‘livchi omillarni chuqur tahlil qilgan holda mintaqada kambag‘allikni qisqartirishning bir nechta yo‘llarini taklif etish mumkin:Birinchidan, mintaqa aholisini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashti-rish hududiy kambag‘allikni qisqartirishning muhim dastaklaridan biri bo‘lib, mehnatga layoqatli yoshlar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun band qilingan kvota ish o‘rinlariga ishga joylashtirish, yangi yaratilgan mavsumiy ish joylariga ishsiz fuqarolarni jalb qilish

va o‘zini o‘zi band qilish, yagona milliy mehnat bazasidagi mavjud bo‘sh (vakant) ish o‘rinlariga band bo‘lmagan fuqarolarni ishga joylashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. World Bank. (2022). Poverty and Shared Prosperity 2022: Correcting Course. Washington, D.C.: The World Bank.

2. United Nations Development Programme (UNDP). (2021). Human Development Report 2021/2022: Uncertain Times, Unsettled Lives. New York: UNDP.

3. International Monetary Fund (IMF). (2023). Fiscal Policies for Poverty Reduction and Inclusive Growth. IMF Publications.

4. B.K.Zaripov. Kambag‘allikni qisqartirishning ilg’or xorijiy tajribalari. "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, 2024.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti